

## KOREYS TILIDA SIFAT SO'Z TURKUMI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653796>

**Azzamov Yusuf Rajabboyevich**

Samarqand davlat chet tillar instituti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Mamatqulov Mehroj O‘ktam o‘g‘li**

Samarqand davlat chet tillar instituti sharq tillar fakulteti 1-bosqich koreys tili

yo‘nalishi talabasi

+998995256379

### ANNOTATSIYA

*Ushbu keltirilgan maqolada o‘zbek tilidagi sifat so‘z turkumi yasalishi ularning tuzilishi buning bilan birga koreys tilida ham ishlatilish qoidalari ularning grammatic hodisalari hamda ingliz tilida ham qanday usulda yasalishi kabilarni ko‘rishimiz mumkin hamda ushbu maqola koreys tilida sifat so‘z turkumi haqida so‘z yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *sifat, koreys tilida sifat, ingliz tilida sifat, sifat so‘z turkumi yasalishi.*

### ABSTRACT

*This article discusses the formation of adjectives in Uzbek, their structure, as well as the rules of their use in Korean, their grammatical phenomena, and how they are formed in English, and this article deals with adjectives in Korean.*

**Keywords:** *adjective, adjective in Korean, adjective in English, adjective construction.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье рассматривается образование прилагательных в узбекском языке, их структура, а также правила их употребления в корейском языке, их грамматические явления и то, как они образуются в английском языке, а в данной статье речь идет о прилагательных в корейском языке.*

**Ключевые слова:** *прилагательное, прилагательное в корейском языке, прилагательное в английском языке, прилагательное.*

## KIRISH

Har bir mamlakatning o‘zining tili, tarixi shuningdek o‘ziga xos sifatlarlari mavjuddir. Qolaversa, o‘sha mamlakat o‘z tilining muhim shakllari hamda o‘z tizimiga ega bo‘lgan turli xil grammatik til hodisalarini ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Misol qilib oladigan bo‘lsak, nafaqat o‘zbek tilida bunday ko‘p til tizimida so‘z turkumlar borligi balki ularni turli xil yo‘llar orqali o‘rganish usullari mavjud. Shuning bilan bir qatorda quyida keltirilgan sifat tushunchasini quydagicha ifodalashimiz mumkin;

Sifat (tilshunoslikda) — predmet belgisini bildiruvchi so‘zlar turkumi. Grammatikada belgi so‘zi keng tushunchali bo‘lib, u belgini rangturi, hajm, shaklko‘rinish, xususiyat va shakliga ko‘ra bildiradi: qizil, keng, yoqimli va boshqa. Shu xususiyatlarga ko‘ra, sifatlar ma’nosiga qarab bir necha turga bo‘linadi: rang-tus bildiruvchi sifatlar — oq, sariq, qizil, nimrang kabi; maza-tam bildiruvchi sifatlar — shirin, nordon, achchiq, bemaza kabi; xususiyat bildiruvchi sifatlar — mehribon, sodda, mug‘ambir, yuvosh kabi; shaklko‘rinish bildiruvchi sifatlar — gavdali, novcha, uzunchoq, yassi kabi; hajmo‘lchov bildiruvchi sifatlar — keng, tor, katta, og‘ir, yengil kabi va boshqa. Sifat turkumi o‘ziga xos so‘z yasalishi va morfologik tizimiga ega. O‘zbek tilida yasama sifatlar, asosan, sifat yasovchi suffikslar yordamida xosil qilinadi.[1]

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yuqorida keltirib o‘tilganidek, chet tillarida ya’ni koreys tilida ham ushbu sifat tushunchasi quydagicha beriladi.(형용사) deb ataladi.

Sifat tushunchasi (형용사의 개념)

1.Sifatning ma’nosи va grammatik belgilari. Sifat so‘zlar predmetining belgisi va xususiyatlari, sifatini anglatadi.

2. Sifat yasalishi.

Sifat ikki xil usulda yasaladi: qo‘shma (복합형용사), yasama sifatlar (파생형용사) orqali yasaladi.

1.Qo‘shma sifat: (복합형용사).

명사+형용사+(ot+sifat) ga misollar;

값싸다(arzon), 배부르다(to‘la), 올른다(tik) kabilarni ko‘rishimiz mumkin.

2.형용사 어간+형용사(sifatdosh o‘zak + sifatdosh)ga misollar;

굳세다(kuchli), 검푸르다(quyuq ko‘k), 희멀겋다(kulrang) kabi so‘zlar ham qo‘shma sifatni hosil qiladi.

3.반복(takrorlangan so‘zlar) ga misollar;

크나크다(katta), 겉디검다(quyuq qorong‘u) kabilar so‘zlarning takrorlanishidan hosil bo‘lgandir.

## 2. Yasama sifatlar: (파생형용사).

1.-하-: 깨끗하다(toza), 조용하다(sokin, tinch) kabi so‘zlar qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida yangi sifat so‘z turkumidagi so‘z hosil bo‘lgan.

2.-답-: 꽂답다(guldek), 정답다(shavqatli) so‘zlar ham qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladi.[2]

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu koreys tilidagi sifat so‘z turkumi ham o‘zbek tilidagi sifatdagidek ishlatiladi. Bundan boshqa masalan ingliz tilida ham shunday ishlatilishiga guvoh bo‘lamiz. O‘zbek tilida sifat so‘z turkumi oddiy "sifat" deyilsa, koreys tilida bu so‘z turkumi "형용사" ingliz tilida esa "adjective" kabi ishlatiladi. Biz yuqorida sifatning morfologik xususiyatlari ularning tuzilishi va grammatic belgilarini aniqlab oldik. Quyida esa inglizcha sifatning morfologik tuzilishi uning grammatic hodisalarini kuzatishimiz mumkin:

Tilshunoslikda sifatdosh (qisqartirilgan adj) ot yoki ot so‘z birikmasini o‘zgartiruvchi yoki uning ko‘rsatuvchisini tavsiflovchi so‘zdir. Uning semantik roli ot tomonidan berilgan ma’lumotni o‘zgartirishdir.

An'anaga ko'ra, sifatlar ingliz tili nutqining asosiy qismlaridan biri hisoblangan, garchi tarixan ular otlar bilan birga tasniflangan.[3] Masalan: yellow(sariq), good(yaxshi), ugly(hunuk), funny (kulgili) kabi ma'nolarda ishlatiladi. Bu ham o‘zbek tilidagidek yasaladi hamda bularning yasalish usullari ham bir xildir. 1. Qo‘shma va 2. Yasama. Bularga misollar keltiradigan bo‘lsak, comfortable (shinam,qulay)—yasama sifat, wooden spoon(yog‘och qoshiq)—qo‘shma sifat kabilarni ko‘rishimiz mumkin.

## REFERENCES

1. O‘zMe ensiklopedia-2005 ma’lumotlari <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sifat>
2. Kim Chun Shik—Koreys tili grammaticasi. Samarqand-2007y. 73-74b.
3. Dictionary of Grammatical Terms in Linguistics. Taylor & Francis. p. 188. ISBN 978-1-134-88420-9 <https://en.m.wikipedia.org/wiki/Adjective>
4. Баенханова, И. (2019). Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. Иностранный филология: язык, литература, образование, (2 (71)), 64-66.

- 
5. Furkatovna, B. I. (2021). DISCURSIVE-PRAGMATIC FEATURES OF KOREAN AND UZBEK ARTICLES ON THE CONCEPT OF "/MAN" 사람. International Journal of Management, 12(2).
  6. Баёнханова, И. Ф. (2021). KOREYS TILIDA SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING IFODA MA’NOSIGA KO’RA TURLARI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2).
  7. Shuhratova, V., & Amanullayeva, K. (2021). KAZUO ISHIGURONING" DAFN ETILGAN GIGANT" ASARIDA FANTASTIK G’OYALAR TALQINI. Интернаука,(28-2), 67-68. 9. Амануллаева, КМ О ХУДОЖЕСТВЕННОМ КОНЦЕПТЕ И В ЦЕЛОМ. ББК 74.48 Р, 76, 271
  8. Ачилова, О. . (2020). Средства выражения содержания приказа в японском языке. Иностранный филологический журнал: язык, литература, образование, (1 (74), 62–65. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/foreign\\_philology/article/view/1274](https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/1274)
  9. Ачилова, О. (2016). Использование императивной формы в японском языке. Иностранный филологический журнал: язык, литература, образование, 1(1 (58), 88–90. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/foreign\\_philology/article/view/185](https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/185)